

Turgunov Mukhriddin Ilhomjon oglu¹
Makhamadaliyeva Madinakhon Ulugbek qizi²
Khasanova Sokhiba Bakhodir qizi³

Impact Factor: 9.2

ISSN-L: 2544-980X

MEASURES FOR TREATMENT AND PREVENTION OF DYSEPSEPS IN CALVES

(Turgunov Mukhriddin Ilhomjon oglu, Makhamadaliyeva Madinakhon Ulugbek qizi, Khasanova Sokhiba Bakhodir qizi)

Summary: This article describes the drugs used to treat dyspepsia in calves on farms and measures to prevent the disease

Keywords: Dyspepsia, diet, hygiene, breast milk, fever, pregnant animals, saline solution, regidron

Mavzuning dolzarbligi: Mamlakatimizdagi barcha qoramolchilikka ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklarida nasildor sigirlardan olinadigan buzoqlarda dispepsiya kasalligi bilan kasallanish holati ko'p kuzatilmoqda. Buzoqlarda dispepsiya – bu oshqozon-ichak traktining ishlashida jiddiy kasallik bo'lib, u hayvonlarning mahsuldorligining pasayishiga olib kelmoqda. Ushbu kasallik fermalarga sezilarli zararni qo'llashi mumkin, chunki bu mahsuldor chorvachilik fazilatlarini kamaytirishi va yo'q qilishning ko'payishini sababi. Eng sezgir dispepsiya yangi tug'ilgan buzoqlarni og'ir gipotrofiya bilan zaiflashtiradi. Bu kasallikni oldini olish va davolash choralari vaqtida qo'llanilmasa chorvachilikka juda katta iqtisodiy zarar keltiradi, ya'ni chorvachilik xo'jaliklariga o'sishdan ortda qolishi va o'lim xolatlari kuzatilishi bilan katta ziyon yetkazadi.

Tadqiqot obyekti va predmeti: Andijon viloyati Asaka tumanida joylashgan <<TURG'UNBOY SHOKIROV>> fermer xo'jaligi. Biz fermer xo'jaligiga borib o'rganganimizda 200 bosh sog'in sigir, 120 bosh buzoq, 250 bosh tanadan iborat. Kasallikni oldin olish maqsadida fermer xo'jaligida dispepsiya kasalligi bilan kasallangan hayvonlarni podadan ajratish (dispanserlash) ishlarini olib bordik. Fermer xo'jaligida dispepsiya bilan kasallangan buzoqlarni davoladik va kasallanish holatini oldini oldik.

Dispepsiya kasalligi haqida: Buzoqlarda dispepsiya kasalligining asosiy sabablari buzoqlarni emizishda ona segirlarda sanitariya gigiena va noto'ri ozoqlantirish, buzoqlarni saqlash sharoiti yaxshimasligi, buzoqlarni oziqlantirish yani ratsionning to'g'ri tashkil etilmaganligi oqibatida kasallik kelib chiqadi. Dispepsiya kasalligi asosan 1 kunlikdan 7-10 kunlikgacha bo'lgan buzoqlarda kuzatiladi. Kasallik bilan kasallangan buzoqlarda ich ketish, isitma, ishtahaning yo'qolishi, yurak qon tomir tizimi, jigar faoliyati buzilishi, holsizlanish, tashqi tasirlarga bo'lgan javob reaksiyasi sustlashishi kuzatiladi. Kasallikning boshlanishida tezak suyuq bo'lib oqish-sariq, keyinchalik oqish-ko'kimtir rangda va havo pufaklari aralashgan bo'ladi. Uning achqimtil keyinchalik qo'lansa hidga aylanadi. Ichaklar harakati keskin kuchayib, qorin devori paypaslanganda buzoq og'riqning zo'rligidan ingraydi, defikatsiya xam tezlashadi va og'riqli bo'ladi. Kasallikning birinchi kunlari tana xaroratining 0.5-1 darjaga ko'tarilishi keyinchalik termoregulyatsiyaning buzilishi va ich ketishi oqibatida tana haroratining 36-35 darajagacha pasayishi kuzatiladi. Suv-tuz almashinuvining buzilishi oqibatida shilliq pardalarning quruq, teri qoplamasining xurpaygan va yaltiroqligi yo'qolgan bo'lishi, ko'z olmasining chuqur cho'kishi kuzatiladi. Tomir urishi 1 daqiqada 140 martagacha tezlashadi va ko'pincha aniqlashning imkoni bo'lmaydi, nafas soni esa 1 daqiqada 36-40 martani tashkil etadi. B.M.Eshburiyev(2008).

Dispepsiya kasalligini davolash va oldini olish: Dispepsiyani davolash uzoq va qiyin jarayon bo'lishi mumkin. Kasallik davolashda iliq fiziologik eritma ichirilgan holda 6-12 soat och parhez qilinadi, dastlabki kunlarda yosh hayvonlarga ichiriladigan sutning sutkalik normasi 35-50foiz kamaytiriladi, sut berishdan 10-15 minut oldin sutkada 3-4

¹ Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology

² Student of Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology

³ Student of Tashkent branch of Samarkand State University of Veterinary Medicine, Livestock and Biotechnology

marta buzoqlarga 500-600 ml dan, iliq fiziologik eritma ichiriladi. Meda ichakdagi bijg'ish jarayonini to'xtatish uchun kasal hayvonga sintomitsin, tetratsiklin, ftazol, levomitsin, kolimitsin kabi preparatlar beriladi. Teri ostiga, venaga yoki qorin ichiga maxsus tayyorlangan xlorli preparatlar eritmaları yuboriladi. Yurak faoliyatini tiklash uchun glyukoza, kofein yoki kamfora moyi ishlatiladi. Kasallikni oldini olish uchun esa buzoqlarni saqlash va boqishda eng avvalo sanitariya gigiena qonun qoidalariga rioya qilishimiz lozim. Sigirlarni bo'g'ozlikni ilk davrlaridan boshlab oziqlantirish ratsioniga etibor qaratish va sutdan chiqarish tartibini to'g'ri tashkillashtirish. Sigirlarni sutdan chiqarilgandan so'ng shirali ozuqalar miqdori kamaytirilib o'rniga dag'al ozuqalar bilan oziqlantiriladi. Sigirlarni tug'ruq jarayonini to'g'ri tashkil etish, buzoq tug'ilgandan so'ng ilk uviz suti yani birinchi oziqlantirishni to'g'ri tashkil etish lozim.

Xulosa. Buzoqlar hayotining birinchi 10 kunligida dispepsiya bilan kasallanib ular organizmining umumiy holsizlanishi, ich ketishi, tana haroratini ko'tarilishi, burun shilliq qavatlarini qurishi bilan harakterlanadi. Buzoqlarni dispepsiyaning davolashda kasal buzoq vena qon tomiridan dori moddalari yuboriladiva og'iz orqali ichiriladi. Kasallik vaqtida aniqlab profilaktika ishlari to'ri tashkillashtirilmasa buzoqni nobut bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Safarov M.B., Safarov M.M Klinik diagnostika va rentgenologiya darslik. "Sano-standart" nashriyoti. Toshkent, 2019 yil
2. Norboyev Q.N., Bakirov B.B, Eshburayev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari fanidan amaliy mashg'ulotlar .O'quv qo'llanma. Samarqand, "N.Doba", 2009.
3. Norboyev Q.N., Bakirov B.B ,Eshburiyev B.M. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. Darslik. Samarqand, SamDU tahririy nashriyot bo'limi, 2020.
4. Bakirov B.B. Hayvonlarning ichki yuqumsiz kasalliklari. O'quv qo'llanma. Samarqand, "Optima print plus", 2015.